


“TASDIQLAYMAN”

“Sharg‘unko‘mir”AJ

Bosh direktori

M.A.Azizkulov



“Sharg‘unko‘mir”AJda 2025-yil III-chorak davomida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida

XISOBOT

“Sharg‘unko‘mir” aksiyadorlik jamiyatida 2025-yil III-choragi davomida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshiradigan yo‘l xaritasida belgilangan vazifalar doirasida tegishli tadbirlar amalga oshirildi.

1.Xisobot davrida yo‘l xaritasida belgilangan chora-tadbirlar asosida Respublikada amalga oshirilayotgan isloxotlardan kelib chiqib “Sharg‘unko‘mir”AJda korrupsiyaga qarshi kurashning qonuniy asoslarini yanada takomillashtirish, jamiyat xodimlarini korrupsiyaga qarshi immunitetni shakllantirish maqsadida o‘quv kurslarini tashkil etilib ishchi-xodimlar bosqichma-bosqich o‘qitilmoqda, tizimda korrupsiyaviy holatlarini oldini olish, shuningdek ish samaradorligini oshirish korrupsiyaviy holatlarni oldini olish maqsadida rotasiya usulidan foydalanib kelinmoqda. Xodimlar orasida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha so‘rovnomalar o‘tkazilib tahlil qilindi. Korrupsiyaga qarshi profilaktik tadbirlar sifatida korrupsiyaning salbiy illatlarini aks ettiruvchi hamda O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va ulardagi o‘zgartirishlar elektron kurinishda targ‘ibot materiallari tayyorlanib, rasmiy veb-sayt va telegram kanallarda joylashtirib kelinmoqda. «Korrupsiyaga qarshi kurash» ruknini tegishli ma'lumotlar va axborotlar bilan doimiy to‘ldirib borish, Davlat xaridlari, xarajatlar va boshqa ma'lumotlarni “Sharg‘unko‘mir”AJning rasmiy veb-saytlariga joylashtirish amalga oshirilmoqda. 3-chorakda ishga qabul qilingan ishchi-xodimlarga “Sharg‘unko‘mir”AJning “Korrupsiyaga qarshi kurashish Siyosati”, “Manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish bo‘yicha Nizom”, “Odob-axloq Kodeksi”, “Sovg‘alar berish va olish siyosati” va korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki Korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslarni rag‘batlantirish tartibi bilan tanishtirish maqsadida o‘quv kurslari tashkillashtirilib bayonnoma asosida rasmiylashtirilmoqda.

2. “Sharg‘unko‘mir”AJda korrupsion xavf-xatarlar xaritasi ishlab chiqilib unda “Yuqori” darajadagi xavflarni bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturiga asosan uorrupsiogen omillarni minimallashtirish bo‘yicha ishlar olib borilmoqda.

“Sharg‘unko‘mir”aksiyadorlik jamiyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubiyoti talablariga muvofiq korrupsiogen xavf-xatarlar “Yuqori”, “O‘rta” va “Past”darajalarga taqsimlandi. Unga ko‘ra, 130 ta lavozimlarda korrupsiyaviy xavf-xatarlar mavjudligi, shundan 8tasida korrupsiya xavf-xatari 8-

tasi “Yuqori” bo‘lgan lavozimlar, “23- tasi O‘rta”, “99- tasi Past”lavozimlar ekanligi qayd etildi.

Shuningdek “Sharg‘unko‘mir” aksiyadorlik jamiyatida xavf-xatari eng ko‘p moil bo‘lgan lavozimlar ro‘yxati shakllanitrilib, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish choralari ishlab chiqilib unga ko‘ra “Korrupsiyaga qarshikurashish virtual akademiyasi”da 13 ta maxsus o‘quv kursida o‘qib sertifikatlar olishdi.

3.Jamiyatda manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish bo‘yicha quyidagi ishlar amalga oshirilmoqda. “Sharg‘unko‘mir”aksiyadorlik jamiyatining 2024-yil 14-noyabrdagi 288-son buyruq bilan tasdiqlangan “Manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish to‘g‘risidagi Nizom” talablari asosida korrupsiogen omillarni barvaqt oldini olish, ularni bartaraf qilish maqsadida jamiyatning barcha xodimlari tomonidan yiliga bir marta manfaatlar to‘qnashuvini oshkor qilish shakli (deklarasiya) to‘ldirilishi belgilab qo‘yilgan. Shu maqsadda “Sharg‘unko‘mir”aksiyadorlik jamiyatida 3-chorakda ishga qabul qilinayotgan barcha ishchi-xodimlardan manfaatlar to‘qnashuvini oshkor qilish shakli (deklarasiya) olinib manfaatlar to‘qnashuvi mavjud emasligi aniqlandi.

4. “Sharg‘unko‘mir” aksiyadorlik jamiyati barcha tuzilgan shartnomalar, to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalarida korrupsiyaga qarshi bandlar qo‘shilishi amalga qo‘llanilib kelinmoqda. Jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati talablari asosida xodimlarning mehnat shartnomalariga korrupsiyaga qarshi qo‘shimcha ogohlantirish bandlari kiritilgan.

5. “Sharg‘unko‘mir” aksiyadorlik jamiyati tomonidan 2025-yilning 3-choragida jami 15 944 mln. so‘mlik jami 396 ta shartnoma rasmiylashtirilgan. Shulardan 352 tasi elektron do‘kon(xt-xarid.uz), 11 tasi milliy(xt-xarid.uz), 2 tasi tanlov(xt-xarid.uz), 3 ta electron do‘kon (xarid.uz) , 6 ta milliy (xarid.uz), 6 ta electrondo‘kon (cooperation.uz), 8 tasi To‘g‘ridan to‘g‘ri (xarid.uzex.uz) va yagona etkazib beruvchi (xarid.uzex.uz)lar bilan tuzilgan shartnomalar 8 ta shartnoma imzolandi.

Mazkur tuzilayotgan shartnomalarni kontragentlarni o‘rganish orqali uning ishonchliligi, moliyaviy barqarorligi, davlat amaldorlari bilan aloqadorligi, manfaatlar to‘qnashuvi mavjudligini tekshirish orqali yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavflarni kamaytirish bo‘yicha ishlar 23 ta shartnomada amalga oshirildi.

Xisobot davrida davlat xaridlari jarayonida soxta xujjatlarni taqdim etgan yoki ayni bitta lotda ishtirok etgan afillangan shaxslar hamda manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi ma'lumotlar aniqlanmadi. Korxonadagi xaridlar jarayoni amaldagi qonunchilik xujjatlari hamda “Sharg‘unko‘mir”aksiyadorlik jamiyatining xaridlarni amalga oshirish Nizomi asosida amalga oshirilib kelinmoqda. Korrupsiogen omil aniqlanmadi.

6. “Sharg‘unko‘mir”aksiyadorlik jamiyati xisobot davrida jamiyat ishchi xodimlariga “Sovg‘alar berish va olish, biznes-tadbirlarni tashkil etish, vakillik

xarajatlarini amalga oshirish bo'yicha siyosati"ga amal qilingan xolda, kasb bayramlari, yubiley yoshlari (tug'ilgan kun)da sovg'alar taqdim etilgan.

Pul mukofotlari va ustamalar tayinlash jamiyatning Jamoa shartnomasi hamda jamiyatning qabul qilingan Nizomlariga asosan amalga oshirilib kelinmoqda.

Shunga ko'ra 2025 yil 8 sentyabr №185 sonli buyruq asosida "Mehnat va ish haqi bo'limi" auditdan o'tkazilgan bo'lib, iyul va avgust oylarida ishchi-xodimlarga 31.07.2025yil №152-son bilan ro'yxatga olinigan buyruqda "Sharg'unko'mir"aksiyadorlik jamiyatining 2024 yil bo'yicha haqiqiy samaradorligining yig'indi ko'rsatkichlari (SYK)-112.13 foizga bajarilganligi inobatga olinib ijro organi a'zolariga belgilangan lavozim okladining 112.13 foizi miqdorida rahbatlatirilgan. Bunga asos O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 28-iyuldagi 207-sonli qarorining "Davlat ulushi bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa xo'jalik yurituvchi subektlar faoliyati samaradorligini joriy etish to'g'risida"gi Nizomning 24-bandi hamda "Sharg'unko'mir"AJ ijroiya organi to'g'risidagi Nizom ijrosi bo'yicha jamiyat ijro organining 2024 yil uchun jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan tasdiqlangan "Biznes-reja" ilovasida ko'rsatilgan samaradorlikning muhim va qo'shimcha ko'rsatkichlarining (SMK) bajarilishi haqidagi "TTT-AUDIT"MCHJ auditorlik tashkilotining xisoboti to'langan mukofot pullariga asos bo'lgan.

31.07.2025 yil №154 son buyruqga binoan "Sharg'unko'mir"AJ xodimlarining ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, iste'molchilarga toza va sifatli toshko'mir mahsulotini bus-butun kamchiliklarsiz etkazib berishga hissa qo'shgan ma'sul muhandis-texnik xodimlarga haqiqatda ishlagan ish soatlarini inobatga olgan holda 2025 yil iyul oyida lavozim okladlari miqdorida qo'shimcha ish haqi to'lab berilgan bo'lib, "Sharg'unko'mir"aksiyadorlik jamiyatining iste'molchilarga o'z vaqtida sifatli toshko'mir mahsulotini bus-butun etkazib berishda hissa qo'shgan xodimlarni mukofotlash to'g'risidagi Nizom asosida amalga oshirilgan.

2025 yil 31-iyul 156-sonli buyruq bilan tasdiqlangan jamiyatning tegishli uchastka xodimlariga mukofot pullari hisoblangan bo'lib ushbu mukofot pullari 2023 yil 1-may sanasi bilan tasdiqlangan "Sharg'unko'mir" aksiyadorlik jamiyatida boshqaruv apparati, uchastka rahbarlari va ishchi-xodimlarini mukofotlash to'g'risidagi Nizomga asosan, xususan mukofot pullari ushbu Nizomning 1-ilovasida belgilangan asosiy ishlab chiqarish ko'rsatkichlari bajarilishi inobatga olingan holda iyul oyi ish haqi bilan to'lab berilgan.

2025 yil 31-iyul bilan 181-buyruq jamiyatning barcha xodimlariga mukofot pullari avgust oyi ish haqlariga qo'shib to'lab berilgan. Ushbu mukofot pullari ham 2023 yil 1-may sanasi bilan tasdiqlangan "Sharg'unko'mir" aksiyadorlik jamiyatida boshqaruv apparati, uchastka rahbarlari va ishchi xodimlarini mukofotlash to'g'risidagi Nizomiga asosan amalga oshirilgan.

2025yil 31-iyul 182-sonli buyruq bilan korxonaning ishlab chiqarish harajatlarini kamaytirish va ish unumdorligini oshirishda alohida tashabbus

ko'rsatgan Avtosaroy uchastkasi ishchi-xodimlari mukofotlangan. Bunga asos 2025 yil avgust oyida "Avtosaroy" uchastkasining nosoz xolatdagi LOVOL75/712FA avtopogruzchigi chetdan shartnoma asosida mutahassislar jalb qilinmasdan ichki imkoniyatlardan kelib chiqib, xodimlarning alohida tashabbus ko'rsatib ishlaganlari natijasida to'liq soz xolatga keltirilgani haqida tuzilgan dalolatnoma.

31.08.2025 yil №183 son buyruqga binoan "Sharg'unko'mir" AJ ishchi-xodimlarining ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, iste'molchilarga toza va sifatli toshko'mir mahsulotini bus-butun kamchiliklarsiz etkazib berishga hissa qo'shgan ma'sul muhandis-texnik xodimlarga haqiqatda ishlagan ish soatlarini inobatga olgan xolda 2025 yil avgust oyida lavozim okladlari miqdorida qo'shimcha pul mukofoti to'lab berilgan bo'lib, "Sharg'unko'mir" aksiyadorlik jamiyatining iste'molchilarga o'z vaqtida sifatli toshko'mir mahsulotini bus-butun etkazib berishda hissa qo'shgan xodimlarni mukofotlash to'g'risidagi Nizom asosida amalga oshirilganligi aniqlandi. Korrupsion omil aniqlanmagan.

7. "Sharg'unko'mir" aksiyadorlik jamiyatida xisobot davrida aloqa kanallari orqali korrupsion xolatlar bo'yicha murojaatlar kelib tushmagan.

8. "Sharg'unko'mir" aksiyadorlik jamiyatida xisobot davrida korrupsiogen qoidabuzarliklar aniqlanmadi.

9. "Sharg'unko'mir" aksiyadorlik jamiyatida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tasdiqlangan "Yo'l xaritasi", "Sharg'unko'mir" AJda korrupsiya xavf-xatariga eng ko'p moyil bo'lgan xodimlar va barcha ishchi-xodimlarni korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tayyorlash va qayta tayyorlash o'quv dasturi, ishchi-xodimlarni huquqiy ongini va madaniyatini yuksaltirish hamda korrupsiyani oldini olish maqsadida 2025 yil 9-iyulda Bayon №81/A Qonunchilik normalari Korrupsiyaviy harakatlar va sodir etilgan korrupsiyaviy omilning oqibatlari bo'yicha yuqori texnologik majmuada ish faolityaini olib borayotgan uchastka boshliqlari muxandis-texnik xodimlar o'quv mashg'uloti amalga oshirildi. O'quv jarayonida 2025 yil 5 martdagi Prezident Shavkat Mirziyoev raisligida Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kengashning korrupsiyani oldini olish bo'yicha ishlar natijadorligi, jamiyatimizda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatlarni shakllantrishning yo'nalishlari, 2025 yil 30 iyundagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining Qarori ya'ni Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 14 noyabrdagi 758-son qarori bilan tasdiqlangan qarindoshlarning birga ishlashlarini cheklash to'g'risidagi qoidalarga kiritilgan o'zgartirishlar hamda korrupsiyaning oqibatlari og'ir oqibatlarga olib kelishi borasida ma'lumot berildi.

2025 yil 29 avgustda "Sharg'unko'mir" AJning bo'lim va uchastka boshliqlari ishtirokida "Sharg'unko'mir" aksiyadorlik jamiyatida Korrupsiyaga qarshi kurashishda qonunchilik hujjatlari, korrupsiyaviy xavf-xatarlar va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan korrupsiyaviy harakatlarning turlari va ularni oldini olish "Sharg'unko'mir" AJning korrupsiyaga qarshi kurashda qabul qilingan ichki me'yoriy hujjatlar, huquqbuzarliklar haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi

kurashishga boshqa tarxda ko'maklashgan shaxslarni rahbatlantirish tartibi va a'loqa kanallaridan foydalanish bo'yicha o'quv seminari bo'lib o'tdi.

2024 yil 18-noyabrdagi №288 son buyrug'i asosida qabul qilingan "Korrupsiyaga qarshi kurashish Siyosati", "Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risidagi Nizom", "Odob-axloq Kodeksi", "Sovg'alar berish va olish Siyosati" va korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishda boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish tartibi bo'yicha o'quv seminar, 2025-yil 25-sentabr sanasida Bayon №108-son bilan 3-chorakda ishga yangi qabul qilingan ishchi-xodimlar "Korrupsiyaga qarshi kurashish Siyosati", "Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risidagi Nizom", "Odob-axloq Kodeksi", "Sovg'alar berish va olish Siyosati" va korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishda boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish tartibi bo'yicha o'quv tadbiri amalga oshirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi PQ-288-son "Aholi va davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlarini uzluksiz oshirish tizimini joriy qilish chora-talbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq "Sharg'unko'mir" AJning korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi yuqori bo'lgan bo'lim xodimlari (jami 13 kishi) "Korrupsiyaga qarshi kurashish virtual akademiyasi" eektron platformasida maxsus o'quv kursida bilim malakalarini oshirishdi.

"Sharg'unko'mir" AJning rasmiy telegram kanali hamda veb saytidajamiat xodimlari va kuzatib borayotgan fuqarolarni qonunlardan xabardor qilish va huquqiy madaniyatini oshirish maqsadida qonunchilik hujjatlari hamda korrupsion omillarni oldini olish maqsadida ma'lumotlar joylashtirildi.

**Komplaens va korrupsiyaga qarshi
kurash xizmati boshlig'i**



Sh.O.Xalilova